



Boshlang'Ich Sinf O'Quvchilarining Lingvokognitiv Faoliyatini Rivojlantirishda Neyrolingvistikaning O'Rni

Abkarova Zuhro Akmaljonovna

Farg'ona davlat universiteti filologiya
fanlari doktori, professor

Xusanova Gulruxsor To'liq qizi

Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvokognitiv faoliyatini rivojlantirish, kognitiv tafakkur, til va ongning chambarchas bog'liqligi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga leksik tushunchalarni o'rgatish metodikasini takomillashtirishni tizimlashtirishda kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan, bolaning o'zini, dunyoni va atrofdagi voqealarni til va nutq orqali idrok etishi, angliya boshlashi o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor qaratish talab etilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, til, so'z, so'z boyligi, kognitiv fikrlash, lingvokognitiv yondashuv.

Inson uchun Vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik muqaddas bo'lsa, ona tilisi ham shunchalik azizdir. Hatto, go'dak ham dunyoni o'z ona tilisi orqali angliyadi. Shuning uchun Vatan, til, millat tusunchalari yonma-yan yuradi. Bizga ma'lumki, hozirgi kunda ingliz tili xalqaro muloqot tillaridan biri bo'lib qolgan. U hayotimizning hamma jabhalariga kirib 58roqan. Lekin hamma mamlakat o'z tilini saqlab qolishi kerak. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunining 30 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarorida "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylig, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat"¹, ekanini alohida ta'kidlab o'tgan. Darhaqiqat, til – millatning bebaho boyligi hisoblanadi.

Olamni bilishni tilsiz tasavvur qilish qiyin. Atrof-olamdagi bor narsa va hodisalar, voqealarni anglash, ular haqida o'quvchilarda tasavvur hosil qilish uchun lisoniy vositalar, ya'ni so'zlar, iboralar, gaplar va ularning birikmalari xizmat qiladi. Har qanday so'z inson bilgan narsalarga nom beradi.

Nomsiz obyekt inson bilgan va kashf etgan olam uchun sanoqli va bundaylarni noma'lum deyish ham mumkin. Inson bolasi so'zni bilishi mumkin lekin ularning barchasini ilk davrlardayoq obyektlar bilan bog'lay olmaydi. Ya'ni u so'zni biladi, ammo so'z o'zi nima ekanligini angliamaydi. Demak, uni real olam haqiqatlari bilan bog'lay olmaydi. So'z nafaqat nomlaydi, belgilaydi, balki umumlashtiradi. Tildagi leksik-semantik tizim obyektlarini ko'rib chiqishga lingvokognitiv yondashuv olamga alohida qarashni shakllantirmaydi, chunki uning obyektlari tadqiqotchining diqqatini jalb qiladigan so'zlardir. Lingvokognitiv yondashuv lisoniy vositalarning xususiyatlarini emas, balki insonning obyektiv olamni ular yordamida ongida qanday aks ettirishi va uni o'z nutqida til vositalaridan foydalanib qo'llashga bo'lgan urinishini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti vaqt o'tishi bilan turli yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shunday yo'nalishlardan biri bo'lgan neyropsixologiya bo'lib, bu fan sifatida inson tafakkurining xususiyatlarini ochib berishga alohida yondashuv sifatida

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunining 30 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 04.10.2019 PQ-4479-sonli qarori



paydo bo'ldi. V.Z.Demyankovning fikricha, inson hatti-harakatlari neyronlar harakati jarayoni darajasi bilan bog'liq [1]

Shuning uchun ham inson yer yuzida mavjud boshqa tirik mavjudotlar orasidagi o'ziga xos mavqei anglab yetgan paytdan boshlab, o'ziga quyidagi savollarni berishda davom etmoqda: Inson tafakkuri qanday tashkil topgan; fikrlash jarayoni qanday amalga oshiriladi; inson tafakkuri atrofidagi dunyo haqidagi ma'lumotlarni qanday idrok etishi va qayta ishlab chiqarishi mumkin? Bu kabi savollarga javob topish bilan nafaqat falsafa, mantiq, psixologiya, biologiya fanlari, balki tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik kabi yo'nalishi ham shug'ullanadi.

Kognitiv qiziqishning rivojlanish darajasi bolaning ta'limdagi muvafaqqiyatiga bog'liq. Agar bola nima uchun u yoki materialga muhtojligini tushunmasa, uni tushunishni istamasa, uni shunchaki o'rgatish imkonsiz. A.K.Markovning fikricha, qiziqish – bu motivasion sohadagi turli xil jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan murakkab shaxsning shakllanishi. Kognitiv qiziqish o'quv faoliyatining asosiy motivlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi nafaqat vosita, balki o'quv jarayonining maqsadi hamdir.

Til va nutqiy faoliyatning miya mexanizmlari bilan bog'liqligi, tilning miyada ifodalanishi, tafakkur psixologiyasi, shaxsiyat, etnopsixolingvistika, kognitiv jarayonlarda nutq bilan bog'liq buzilishlar va shu kabi qator muammolarni ko'rib chiqish, uning terminologik apparatini shakllantirish zaruriyati ham soha oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki bu sohani tashkil etuvchi uchta yirik fan sohalarini terminologik jihatdan katta hajmga ega bo'lgan sohalardan ajratish zarur. [2] Bilish murakkab tizimli jarayon bo'lib, u nafaqat inson ruhiy faoliyatini (ong, aql, tasvirlash, ijodkorlik, tasavvur, mulohaza yuritish, xayolparastlik, orzular) o'z ichiga oladi, balki barcha harakatlanish ko'nikmalarini, idrok etish, xotira kabilarni ham o'zida jamlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bilish statik emas, balki dinamikdir. Bilishning bu xususiyati bevosita inson omili bilan bog'liq, chunki inson yashayotgan olam doimiy o'zgarib turadi va u bilan birga dunyoni bilish ham, o'z-o'zini anglash usullari ham o'zgaradi. [3]. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, so'nggi paytlarda tilshunoslikda paydo bo'lgan kognitiv tilshunoslik va "lisoniy bilish" tushunchasi insonlar tilni, tildagi vositalarni qachon va qanday tanlaydi degan savolni o'rtaga tashlamoqdalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvokognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyrolingvistika muhim rol o'ynaydi. Neyrolingvistika, til va miyaning o'zaro bog'liqligini o'rganadigan fan sifatida, o'quvchilarning til o'rganish jarayonlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar tilni o'rganishda miya qanday ishlashini, tilni qanday kodlash va tushunish jarayonlarini anglashadi. Neyrolingvistika bolalarning til o'rganish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ba'zi bolalar tilni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, va neyrolingvistika orqali bu muammolarni erta aniqlash va yechish yo'llarini ishlab chiqish mumkin. Lingvokognitiv faoliyatni rivojlantirishda neyrolingvistika vositasida o'quvchilarning til o'rganishiga yordam beradigan maxsus metod va strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Bu usullar bolalarning so'z boyligini kengaytirish, sintaktik tuzilmalarni tushunish va qo'llash, shuningdek, metafora va antonimiya kabi murakkab til hodisalarini o'rganishlariga yordam beradi. Umuman olganda, neyrolingvistika bolalarning til va tafakkurini yanada chuqurroq va samarali rivojlantirishda katta ahamiyatga ega, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda lingvokognitiv faoliyatni rivojlantirish jarayonida.

Boshlang'ich sinfgacha va shu davrdan boshlab ona tilini bilish faoliyati – til bilishning faoliyat ko'rsatish mexanizmi bilan deyarli farqlanmaydi. Ma'lum bir tildagi matnni o'qish va uni sharhlash



orqali voqelikni idrok etishda insonning boshida sodir bo'ladigan kognitiv jarayonlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tildan tilga o'zgarib turadigan "o'zgaruvchan idroklar" (masalan, morfemalar va sintaktik konstruksiyalar haqidagi ma'lumotlar); ular insonning dunyoga moslashishi uchun yordam beradigan yangi idroklarni o'zlashtirishga yordam beradi;
- ma'lum bir tilda xabarlarini ishlab chiqarish va talqin qilishda bilishdan foydalanishning universal strategiyalari;
- bu turdagi strategiyalar insonlar miyasiga qurilgan bo'lib, butun insoniyat idrokidagi idrok illyuziyasining bir xilligiga olib keladi.

Shunday qilib, kognitiv lingvistikaning vazifasi lingvistik bilimni shaxsning tafakkurida qanday namoyon bo'lishi va shaxs tomonidan shakllantirilgan bilim tuzilmalari qanday og'zakilashtirilganligini ochib berishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqot obyektlariga lingvokognitiv yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan leksik antonimlarni o'zlashtirishda tildagi ziddiyat ifodalovchi leksik birliklarning xususiyatlarini ochib beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Boshlang'ich sinfda ona tilini o'rganish fikrlash va rivojlanishning asosiy vositasi hisoblanadi. O'quvchilar til orqali o'z xalqining an'alarini, qadriyatlarini va milliy o'ziga xoslikni, eng asosiysi esa dunyoqarashni egallaydilar. Til bolani ijtimoiy hayotga olib kiradi va unga o'z yaqinlari hamda atrofdagi kishilar bilan muloqot qilish imkonini beradi. O'quvchi ongiga kirib boradigan har qanday axborot va ma'lumotlar u muloqot qilayotgan til orqali kirib boradi. Ta'limning dastlabki bosqichi hisoblangan boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilar uchun faol kognitiv jarayonga o'tish hisoblanadi. Bu davrda bolalar tomonidan tushunchalar so'zlar orqali o'zlashtiriladi, fikr va nutq til birliklarida ifodalanadi. O'quvchilar uchun har bir nutqiy faoliyat va fikrlash jarayoni turli muammoli vaziyatlarni hal qilish, ya'ni ijodiy harakatlanish demakdir. Nutq intellektni rivojlantirishning asosiy kanalidir. Har bir bola o'z ona tilini nutqiy faoliyat jarayonida nutqni idrok etish va so'zlashish orqali egallaydi. Shuning uchun ham bolalarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishida o'zaro muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari, nutqning og'zaki va yozma shakllarini to'g'ri va to'liq egallashlari katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqining rivojlanishi ona tili ta'limiga qo'yilgan zamonaviy talablar va til ta'limining umumiy mazmuniga ham bog'liq hisoblanadi. Bolalar nutqini rivojlantirish ularga ona tilini o'rgatishning asosiy vazifalaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida zid ma'noli so'zlar tushunchasini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslarini ko'rib chiqayotganda, bolalarning kognitiv jarayonlari: fikrlash, diqqat, xotira, idrok etishning to'liq ularda rivojlanmaganligini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, pedagogikada har qanday faoliyat shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish jihatidan ko'rib chiqilishi, ularning barchasi birgalikda shaxsni samarali rivojlantirishni ta'minlagani bois, mazkur faoliyat turlarini amalga oshirish samaradorligining pedagogik shartlari haqida so'z yuritishimiz mumkin va lozimdir. Ona tili ta'limi mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu davrda til ta'limini kognitiv-pragmatik usul elementlari asosida tashkil etish, o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini ham amaliy ham nazariy jihatdan kengaytirib, ularning tafakkurini rivojlantiradi.

Til hodisalarini o'rganishga kognitiv yondashuv fanda yangicha yondashuvlardan bo'lib, bu sohada hali ko'p tadqiqotlar olib borilgan emas. Kognitiv yondashuvning asosiy jihatlaridan, ya'ni markaziy muammolaridan biri inson bilish jarayonida bilimni qanday o'zlashtirishi bilan bog'liq. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda inson til orqali bilim oladi. Shu sababli, turli yoshdagi ona tilida so'zlashuvchilarning til o'rganish xususiyatlarini kognitiv yondashuv asosida o'rganish istiqbolli vazifalardan biridir. Bu borada bolalarning ona tilini o'zlashtirishi va ularning nutqi ko'plab tadqiqotchilarda alohida qiziqish uyg'otgan. Kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan, bolaning o'zini, dunyoni va atrofdagi voqealarni til va nutq orqali idrok etishi, anglay boshlashi o'ziga xos xususiyatlarga ega.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvokognitiv faoliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda bolalar nafaqat til birliklarini o'rganadilar, balki til orqali dunyoqarashlari kengayadi, tafakkurlari rivojlanadi, va yangi bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash va qo'llash qobiliyatlari shakllanadi. Lingvokognitiv yondashuv orqali o'quvchilarga nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki ularning tushunchalarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni va mantiqiy aloqalarni chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'quvchilarning umumiy intellektual va lingvistik rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // ВЯ - 1994. - № 4. - С. 17-33 б.
2. Shaxobidinova, S., Akbarova, Z., & Rustamovna, U. N. R. U. N. (2023). NEYROLINGVISTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA METODLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 55-55.
3. КСКТ. Краткий словарь когнитивных терминов / Под ред. Е.С. Кубряковой. - М., 1996
4. Akbarova Z. A. Teaching to Express Subjective Assessment of Pedagogical Psychological Characteristics of Preschool Children. *Texas Journal of Philology, Culture and History*.2023